Toxirova Nigora Zokirjon qizi

HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISHINI BAHOLASH USULLARI VA XORIJ TAJRIBASI 865
Abdikayumov Bekzod Turdiniyozovich

RAQAMLI DAVRDA OILAVIY TURIZM: XIZMATLARNI ONLAYN PLATFORMALARDA (BOOKING, AIRBNB) MUVAFFAQIYATLI SOTISH 870
Ozoda Pardayeva

O‘ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA SOHAGA XOS METODIKALARNI JORIY ETISH MASALALARI 877
Tulovov Erkinjon To‘lqin o‘g‘li

SUV TA’MINOTI TIZIMLARIDA AKTIVLAR HAYOT SIKLINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASI 882
Suleymanov Farrux Raximjon o‘g‘li
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI 887
Shixiyev Raxim Muhammedovich
QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ HISOBOTINI AVTOMATIK SHAKLLANTIRISHNING SUVDAN SAMARALI FOYDALANISHGA TA’SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI 893
Sodiq Boymurotov
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ТУРИСТСКОГО РЕГИОНА: ИНТЕГРИРОВАННАЯ ТРЁХУРОВНЕВАЯ МОДЕЛЬ 900
Б. Б. Собиров
MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINING YAKUNIY BOSQICHINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 909
Meliyev Isroil Ismoilovich
TAQSIMLANGAN WEB-TIZIMLARDA MIKROFRONTEND ARXITEKTURASINING HISOBLASH MURAKKABLIGI VA MA’LUMOT ALMASHINUVI TAHLILI 917
Jo‘rayev Sherali Umarjonovich
FISKAL VA MONETAR SIYOSATNI MUVOFIQLASHTIRISH ORQALI INFLYATSION XATARLARNI KAMAYTIRISH 924
Narkuziyev Anvar Rustamovich
O‘ZBEKISTONDA KREDIT GAROVI MAQSADIDA KO‘CHAR MULKLARNI BAHOLASHNING ME’YORIY-HUQUQIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI HAMDA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 931
Xo‘jamqulov Jasur Jo‘ra o‘g‘li
XORIJIY INVESTITSIYALAR ASOSIDA KORXONA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TAHLILI 940
Almanov Xurshid Ismoilovich

XORIJIY INVESTITSIYALAR ASOSIDA KORXONA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TAHLILI

Almanov Xurshid Ismoilovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada korxonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish masalalari «Damira Beverages» MChJ misolida tadqiq etilgan. Loyihaning umumiy qiymati, moliyalashtirish qoldig'i, yillik va yarim yillik prognoz ko'rsatkichlari hamda amalda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tizimli, qiyosiy, statistik, gorizontal va koeffitsientlar tahlili usullaridan foydalanilgan. Natijalar loyiha bo'yicha investitsiyalarni o'zlashtirish sur'atlari yuqori bo'lganini, biroq prognoz, qoldiq summa va amaldagi ko'rsatkichlar o'rtasida muayyan nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatgan. Maqolada moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, mablag' ajratishni loyiha bosqichlariga bog'lash, moliyaviy monitoringni kuchaytirish va investitsiya samaradorligini natijaviy ko'rsatkichlar asosida baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihasi, moliyalashtirish mexanizmi, xorijiy investitsiyalar, moliyaviy rejalashtirish, investitsiyalarni o'zlashtirish, moliyaviy monitoring, samaradorlik.

Abstract: The article examines the issues of improving the mechanism for financing investment projects at enterprises using "Damira Beverages" LLC as a case study. The total project value, financing balance, annual and semi-annual forecast indicators, and the actual volume of foreign investment utilized were analyzed. The study employed systematic, comparative, statistical, horizontal, and coefficient analysis methods. The results indicate that the rate of investment utilization under the project was high; however, certain discrepancies exist between the forecast, remaining balance, and actual indicators. The article develops proposals for diversifying financing sources, linking fund allocation to project stages, strengthening financial monitoring, and evaluating investment efficiency based on performance indicators.

Keywords: investment project, financing mechanism, foreign investment, financial planning, investment utilization, financial monitoring, efficiency.

Аннотация: В статье на примере ООО «Damira Beverages» исследованы вопросы совершенствования механизма финансирования инвестиционных проектов на предприятиях. Проанализированы общая стоимость проекта, остаток финансирования, годовые и полугодовые прогнозные показатели, а также фактический объём освоенных иностранных инвестиций. В процессе исследования использованы методы системного, сравнительного, статистического, горизонтального и коэффициентного анализа. Результаты показали, что темпы освоения инвестиций по проекту были высокими, однако между прогнозными показателями, остатком финансирования и фактическими показателями имеются определённые несоответствия. В статье разработаны предложения по диверсификации источников финансирования, увязке выделения средств с этапами реализации проекта, усилению финансового мониторинга и оценке эффективности инвестиций на основе результативных показателей.

Ключевые слова: инвестиционный проект, механизм финансирования, иностранные инвестиции, финансовое планирование, освоение инвестиций, финансовый мониторинг, эффективность.

KIRISH

Hozirgi sharoitda korxonalarning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish ko'p jihatdan investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishga bog'liq. Ayniqsa, yirik sanoat loyihalarini amalga oshirishda korxonalarning ichki moliyaviy resurslari yetarli bo'lmagan holatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xorijiy kreditlar, bank mablag'lari va boshqa moliyaviy instrumentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli investitsiya mablag'larini jalb qilish bilan bir qatorda, ularni o'z vaqtida va maqsadli o'zlashtirish, moliyalashtirish grafigini loyihaning texnik bosqichlari bilan muvofiqlashtirish hamda mablag'lardan foydalanish natijadorligini baholash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Toshkent shahri iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari hududning sanoat va xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi. Biroq ayrim loyihalarda rejalashtirilgan va amalda o'zlashtirilgan investitsiyalar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligi moliyaviy rejalashtirish, prognozlash va monitoring

mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Bunday holatlarda faqat o‘zlashtirilgan mablag‘lar hajmini baholash yetarli emas, balki moliyalashtirishning manbalari, tarkibi, muddatlari, risklari va loyihaning yakuniy iqtisodiy natijalari ham kompleks tahlil qilinishi lozim.

Mazkur tadqiqotda Sergeli tumanida amalga oshirilayotgan «Damira Beverages» MChJning salqin ichimliklar ishlab chiqarishni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihasi tahlil obyekti sifatida tanlangan. Loyihaning umumiy qiymati, moliyalashtirish qoldig‘i, yillik va yarim yillik prognoz ko‘rsatkichlari hamda amalda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar asosida moliyalashtirish holati baholanadi. Tadqiqotning maqsadi korxona investitsiya loyihasini moliyalashtirish amaliyotidagi mavjud tendensiyalar va nomutanosibliklarni aniqlash, shuningdek, moliyaviy rejalashtirish, mablag‘larni maqsadli o‘zlashtirish va investitsiya loyihalari monitoringini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Investitsiyalar har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib, u ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport hajmini oshirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasida samarali investitsiya siyosatini ishlab chiqish va uni izchil amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Mazkur siyosat natijasida yildan-yilga investitsiyalar hajmining ortib borishi aksiyadorlik jamiyatlarining ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

“Investitsiya” atamasi turli ilmiy manbalarda bir-biridan farq qiluvchi ta’riflar bilan izohlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda, odatda, investitsiyalar kelgusida daromad olish maqsadida joriy davrda iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar sifatida talqin etiladi. Masalan, iqtisodiy lug‘atlarda investitsiyalar “kapitalni uzoq muddatli qo‘yilmalar tariqasida turli tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig‘indisi” sifatida izohlangan [1].

P. Masse investitsiyani iqtisodiy ehtiyojlarni hozirda emas, balki kelajakda qondirishga qaratilgan faoliyat sifatida ta’riflaydi. Uning fikriga ko‘ra, bu jarayon muayyan iste’molni hozirgi kunda amalga oshirmasdan, uni investitsiya qilingan ne’matlar yordamida kelajakda amalga oshirishga yo‘naltirishdan iboratdir [2].

MDH davlatlari iqtisodchi olimlari, xususan, L.I. Abalkin tomonidan bildirilgan fikrlarga ko‘ra, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va iqtisodiy inqirozning oldini olishda investitsiyalar muhim omil hisoblanadi. Abalkinning ta’kidlashicha, barqaror iqtisodiy o‘sish uchun, avvalo, ishlab chiqarishning pasayishini to‘xtatish, ishlab chiqarish vositalarining eskirishiga qarshi kurashish va investitsiyaviy faollikni oshirish lozim. U, ayniqsa, ishlab chiqarish infratuzilmasini zamonaviylashtirish va asosiy vositalarni yangilashda investitsiyalarsiz rivojlanish mumkin emasligini qayd etadi [3].

Akademik fikrlar investitsiya tushunchasining ko‘p qirrali va murakkab mohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayrim manbalarda investitsiyalar – bu faoliyatning o‘zi (ya’ni investitsiyalash), boshqalarida esa uning natijasi (ya’ni investitsiya obyekti) sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, investitsiya manbalari ham ichki va tashqi manbalarga ajratilib, ularning amalga oshirish mexanizmlari bir-biridan farq qiladi. Tashqi investitsiyalar konvertatsiya, valyuta risklari, daromad repatriatsiyasi kabi muammolar bilan bog‘liq bo‘lsa, ichki investitsiyalar esa asosan mahalliy moliyaviy resurslarga tayanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son[1] Qonunida investitsiya tushunchasi quyidagicha yoritilgan: “Investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlardir. Investitsiya faoliyati esa – investitsiya subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmuasidir” [4].

Mazkur ta’rif soddalashtirilgan bo‘lsa-da, investitsiyaning iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy mohiyatini to‘liq qamrab oladi, biroq amaliy nuqtai nazardan uni maqsadli kengaytirish talab etiladi. Chunki ba’zi ta’riflarda investitsion qo‘yilmalar, investitsion resurslar va investitsiya obyektlari tushunchalari chalkash holatda qo‘llanilgan. Bu esa, ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyalarni samarali jalb etish va ularni boshqarish jarayonida aniqlik yetishmasligiga olib keladi.

UNCTAD tomonidan O‘zbekiston bo‘yicha tayyorlangan hisobotda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda aksiyadorlik jamiyatlarining roli, huquqiy himoya darajasi, aksiyadorlar huquqlari va korporativ boshqaruv tizimi yoritilgan. Investorlarning eng katta xavotiri – mulk huquqlari va repatriatsiya kafolatlari bilan bog‘liq. Ularni hal etish orqali sarmoyador ishonchi ortadi [5].

“Korporativ boshqaruv kodeksi”da aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv, nazorat, aksiyadorlar bilan munosabatlar, axborot ochiqligi kabi sohalarni tartibga soladi. Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, samarali korporativ boshqaruv – investorlar ishonchini ta’minlovchi vosita sifatida ko‘rsatilgan [6].

Xulosa shuki, investitsiya tushunchasiga berilgan ta’riflar tahlili, uning nazariy va amaliy jihatlari, manbalarining diversifikatsiyasi, risklar va daromadlilik omillari orqali chuqurroq yondashishni talab etadi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini modernizatsiya qilishda investitsiyalarni jalb etish masalasi puxta

1 https://lex.uz/ru/docs/-4664142

iqtisodiy tahlil va mukammal qonunchilik asosida olib borilishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda «Damira Beverages» MChJ investitsiya loyihasini moliyalashtirish mexanizmini o‘rganishda tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik usul asosida loyihaning umumiy qiymati, moliyalashtirish qoldig‘i, xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish bo‘yicha prognoz va amaldagi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Koeffitsientlar tahlili usuli loyihaning moliyalashtirilish darajasi hamda yillik va yarim yillik prognozlarning bajarilish holatini aniqlashda qo‘llanildi. Gorizontal tahlil yordamida amaldagi ko‘rsatkichlarning rejalashtirilgan miqdorlardan farqi baholandi. Tarkibiy tahlil o‘zlashtirilgan mablag‘larning loyiha umumiy qiymatidagi ulushini aniqlash imkonini berdi. Hisob-kitob va tahliliy usullar asosida moliyalashtirish sur’ati va natijadorligi baholandi. Mantiqiy umumlashtirish usuli orqali moliyaviy rejalashtirishdagi muammolar aniqlanib, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil obyekti sifatida Sergeli tumanida amalga oshirilayotgan «Damira Beverages» MChJ tomonidan salqin ichimliklar ishlab chiqarishni tashkil etish investitsion loyihasi tanlandi. Mazkur loyiha sanoat ishlab chiqarishiga yo‘naltirilganligi, xorijiy investor ishtirokida moliyalashtirilayotganligi va 2026-yilning birinchi yarmida investitsiyalarni o‘zlashtirish sur’ati yuqori bo‘lganligi bilan ahamiyatlidir (1-jadval).

1-jadval
«Damira Beverages» MChJ investitsion loyihasining asosiy ko‘rsatkichlari[2]

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Loyiha joylashgan hudud	Sergeli tumani
Loyiha yo‘nalishi	Salqin ichimliklar ishlab chiqarish
Loyiha quvvati	Yiliga 120 mln dona
Amalga oshirish muddati	2025–2027-yillar
Xorijiy investor	Sageyev Mayer
Xorijiy hamkor davlati	Rossiya
Loyihaning umumiy qiymati	180,0 mln dollar
2026-yil 1-yanvar holatiga qoldiq qiymati	95,0 mln dollar
2026-yilda o‘zlashtirish prognozi	90,0 mln dollar
2026-yil yanvar–iyun prognozi	44,0 mln dollar
2026-yil yanvar–iyun amalda o‘zlashtirilgan	98,0 mln dollar

Loyihaning umumiy qiymati 180 mln AQSh dollarini tashkil etib, 2026-yil 1-yanvar holatiga moliyalashtirilishi lozim bo‘lgan qoldiq summa 95 mln dollar sifatida ko‘rsatilgan. Demak, 2025-yil yakuniga qadar loyiha doirasida taxminan 85,0 mln dollar miqdorida investitsiya o‘zlashtirilgan bo‘lishi mumkin. Bu loyiha umumiy qiymatining 47,2 foiziga teng. Shundan kelib chiqib, 2026-yil boshiga kelib loyiha moliyalashtirishning qariyb yarmi ta’minlangan. 2026-yil uchun loyiha doirasida 90 mln dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirish rejalashtirilgan. Bu:

- loyiha umumiy qiymatining 50,0 foizini;
- 2026-yil boshiga qoldiq summaning 94,7 foizini tashkil etadi.

Yillik moliyalashtirish prognozi loyihaning qolgan qismini deyarli to‘liq moliyalashtirishni nazarda tutgan (2-jadval).

2-jadval
Loyihani moliyalashtirish samaradorligi ko‘rsatkichlari[3]

Tahliliy ko‘rsatkich	Hisob-kitob	Natija
2025-yil yakunigacha o‘zlashtirilgan mablag‘	180,0 – 95,0	85,0 mln dollar
2025-yil yakunigacha loyihaning moliyalashtirilish darajasi	85,0 / 180,0 × 100	47,2%
2026-yil I yarim yillik prognozining bajarilishi	98,0 / 44,0 × 100	222,7%

2 Manba: muallif ishlanmasi.
3 Manba: muallif ishlanmasi.

Yarim yillik prognozdan ortiqcha o‘zlashtirish	98,0 – 44,0	54,0 mln dollar
2026-yillik prognozning bajarilishi	98,0 / 90,0 × 100	108,9%
Yillik prognozdan ortiqcha o‘zlashtirish	98,0 – 90,0	8,0 mln dollar
Amaldagi o‘zlashtirishning loyiha qiymatidagi ulushi	98,0 / 180,0 × 100	54,4%
Amaldagi o‘zlashtirishning qoldiq summaga nisbati	98,0 / 95,0 × 100	103,2%

2026-yil yanvar–iyun oylarida loyiha bo‘yicha 44 mln dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirilishi prognoz qilingan. Amalda esa 98 mln dollar o‘zlashtirilgan. Natijada yarim yillik prognoz 222,7 foizga bajarilgan. Prognozga nisbatan 54 mln dollar ko‘p mablag‘ jalb qilingan.

Shuningdek, birinchi yarim yilning o‘zida 2026-yil uchun belgilangan 90 mln dollarlik yillik prognoz 108,9 foizga bajarilgan. Ya’ni yillik rejadan 8 mln dollar ortiq investitsiya o‘zlashtirilgan. Bu holat loyihani moliyalashtirish sur’atlari rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga nisbatan ancha yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Bunga quyidagi omillar ta’sir etgan bo‘lishi mumkin:

- xorijiy investor tomonidan mablag‘larni moliyalashtirish grafigidan oldin ajratilishi;
- ishlab chiqarish uskunalarini tezlashtirilgan tartibda xarid qilish;
- qurilish-montaj ishlari sur’atining oshirilishi;
- import uskunalari uchun oldindan to‘lovlarning amalga oshirilishi;
- loyihani belgilangan muddatdan oldin ishga tushirish maqsadi.

Biroq bunday yuqori ortiqcha bajarilish rejalashtirish sifati bilan bog‘liq masalalarni ham keltirib chiqaradi. Yarim yillik prognoz amaldagi ko‘rsatkichdan 2,2 baravar kam belgilangan. Demak, moliyalashtirish rejasini shakllantirishda investorning haqiqiy to‘lov grafigi, shartnomalar va uskunalar yetkazib berish muddatlari to‘liq hisobga olinmagan bo‘lishi mumkin.

Moliyalashtirish mexanizmini baholash. Loyiha moliyalashtirishning asosiy manbasi xorijiy investitsiyalar hisoblanadi. Bunda asosiy ko‘rsatkichlarini quyidagilar qilib olamiz:

- xorijiy investorning ustav kapitaliga kiritgan ulushi;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar;
- xorijiy kreditlar;
- tijorat banklari kreditlari;
- korxonaning o‘z mablag‘lari;
- lizing yoki yetkazib beruvchilar krediti.

Loyihaning kapital tuzilmasi, qarz yuki va moliyaviy barqarorligini to‘liq baholash imkoniyatini belgilab beradi. Agar 98 mln dollar qarz mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, foiz xarajatlari, kreditni qaytarish muddati, valyuta riski va qarzga xizmat ko‘rsatish koeffitsientlari alohida baholanishi lozim. Agar mablag‘ to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya sifatida kiritilgan bo‘lsa, korxonaning qarz yuki oshmaydi, ammo xorijiy investorning ustav kapitalidagi ulushi va kelgusidagi dividend to‘lovlari ahamiyat kasb etadi.

Loyihaning iqtisodiy ahamiyati. Loyiha to‘liq ishga tushirilganda yiliga 120 mln dona salqin ichimlik ishlab chiqarish quvvati yaratiladi. Bu Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, oziq-ovqat sanoatida yangi quvvatlar tashkil etish va ichki bozor talabini mahalliy mahsulotlar bilan ta’minlash imkonini beradi.

Biroq loyihaning haqiqiy iqtisodiy samaradorligini baholash uchun quyidagi natijaviy ko‘rsatkichlar ham zarur:

- yaratiladigan yangi ish o‘rinlari;
- ishlab chiqarishning mahalliylashtirish darajasi;
- mahalliy xomashyo ulushi;
- yillik mahsulot sotish tushumi;
- eksport hajmi;
- budjetga soliq tushumlari;
- ishlab chiqarish tannarxi;
- sof foyda;
- investitsiyalarning qoplanish muddati;
- NPV va IRR ko‘rsatkichlari.

Loyihani moliyalashtirish holati bo‘yicha quyidagi jihatlarni ajratish mumkin:

- Moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibi;
- Yarim yillik prognozning amaldagi investitsiya oqimiga nisbati;

Amalda o‘zlashtirilgan mablag‘ 2026-yil boshiga qoldiq summadan yuqori bo‘lib, hisobot ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi mutanosiblikni yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud. Moliyaviy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini ishlab chiqarish quvvatining texnik tayyorlik darajasi bilan yanada uyg‘unlashtirish mumkin. Investitsiyalarning

asosiy vositalarga, qurilishga, import uskunalariga va aylanma mablag‘larga yo‘naltirilish ulushlarini batafsil aks ettirish maqsadga muvofiq. Loyihaning iqtisodiy, budjet va eksport samaradorligi bo‘yicha natijaviy indikatorlarni shakllantirish loyihaning samaradorligini yanada to‘liq baholash imkonini beradi.

Moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar.

Birinchidan, loyiha bo‘yicha manbalar va foydalanish yo‘nalishlari matritsasi joriy qilinishi lozim. Unda xorijiy investor mablag‘lari, kreditlar, korxonaning o‘z mablag‘lari va boshqa manbalar alohida ko‘rsatilishi kerak.

Ikkinchidan, investitsiyalarni moliyalashtirish rejasi oylik va choraklik kesimda investorning to‘lov grafigi, uskunalar yetkazib berish shartnomalari va qurilish ishlarining kalendar rejasi bilan muvofiqlashtirilishi zarur.

Uchinchidan, mablag‘larni ajratishni loyihaning aniq bosqichlariga bog‘lash maqsadga muvofiq:

- qurilish ishlarining tugallanishi;
- uskunalarning yetkazib berilishi;
- montaj va sinov ishlari;
- ishlab chiqarish liniyalarini ishga tushirish;
- belgilangan quvvatga chiqish.

To‘rtinchidan, xorijiy valyutadagi kreditlar mavjud bo‘lsa, mahsulot eksportini yo‘lga qo‘yish orqali tabiiy valyuta xedjini shakllantirish lozim. Eksport tushumlari kredit va foiz to‘lovlarining valyuta riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, loyihaning moliyaviy monitoringi faqat o‘zlashtirilgan mablag‘ hajmi bilan emas, balki bir dollar investitsiya hisobiga yaratilgan ishlab chiqarish quvvati, tushum, eksport, foyda va ish o‘rinlari asosida amalga oshirilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

«Damira Beverages» MChJ investitsion loyihasida 2026-yilning birinchi yarmida xorijiy mablag‘larni o‘zlashtirish yuqori sur’atda amalga oshirilgan. Yarim yillik prognoz 222,7 foizga, yillik prognoz esa birinchi yarim yilning o‘zida 108,9 foizga bajarilgan. Bu investorning moliyaviy faolligi va loyihani tezlashtirilgan tartibda amalga oshirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, qoldiq summa, yillik prognoz va amaldagi o‘zlashtirish o‘rtasidagi tafovutlar loyihani moliyaviy rejalashtirish va hisobot tizimini takomillashtirishni talab etadi. Moliyalashtirish mexanizmining samaradorligini oshirish uchun investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish, mablag‘ ajratishni loyiha bosqichlariga bog‘lash, valyuta risklarini boshqarish va moliyaviy ko‘rsatkichlarni ishlab chiqarish natijalari bilan integratsiyalash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son Qonuni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-4664142
2. Финансово-кредитный словарь. Т. – М.: «Финансы и статистика», 1984. - с. 470.
3. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов. – М.: Издателство —ДЕЛО. -2002. С.22.
4. Ивасенко А.Г. Иностранные инвестиции: учебное пособие / А.Г. Ивасенко, Я.И. Никонова. – М.: КНОРУС, 2010. – 272 с.
5. Николаев М.А. Инвестиционная деятелност: учеб. пособие / М.А. Николаев. -Финансы и статистика; ИНФРА-М.- 336 с.
6. Кожахур В.М. Практикум по иностранным инвестициям. – 2-е изд. – М.: Издателско – торговая корпоратсия «Дашков и К», 2009. – 256 с.
7. Браун К. Маленкая книжка, которая научит вас инвестироват / К. Браун; пер. с англ. П.А. Самсонов. – Минск: «Попурри», 2009. – 240 с.;
8. Абалкин Л.И. Логика экономического роста. -М.: Институт экономики РАН, 2002. С. 228.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100